



Talim-tarbiya jarayonlarining ijtimoiy pedagogik va psixologik asoslar.

Ahadov Feruzbek Vafo o'g'li
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Umumiy psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Anatatsiya: *Ushbu maqolada talim- tarbiya jarayonlarini tashkil etish va turli xil yuzaga keladigan kamchiliklarni bartaraf etish va ularni oldini olish, talim- tarbiya o'zaro uyg'un tushuncha ekanligi, oilada, maktabda tarbiya jarayonlarining psixologik olib borilishi, pedagoglarning dars jarayonlarida interaktiv metodlardan foydalanishi, yoshlarni ijtimoiy muhit sharoyitiga moslashtirish va, ijtimoiy muhitda tarbiya masalalari, hozirgi zamon talim beruvchi kadrlar tayyorlash va ularni maxoratini oshirish ularni zamon talablari darajasida o'qitish kabi jarayonlar aks ettirilgan va tushuntirilib berilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogika, satsiologiya, psixologiya, ta'lim-tarbiya, adekvad, maqsad, moddiy, ma'naviy, men obrazi, axloq.*

Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi 21-asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratini, otkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi. Ta'lim muassalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar o'qitish shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxs shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilish lozim. Zero, shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holatda yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmunini nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar vatani bo'lib kelgan O'bekistonda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi mutlaqo o'zgacha ma'no kasb etishi muqarrar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach milliy tarbiya va ta'lim sohasida keng qamrovli islohaotlarni amalga oshirish uchun zamin yaratadi. Zotan, mustaqillik fikr-mulohazalarda ozod, o'z haq-huquqini yaxshi taniydigan, izlanuvchan, zamonaviy bilimga ega, Vatanga,



ona zaminga sadoqatli, boqimandalikning har qanday ko'rinishlari o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ihonib yashaydigan, o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlar bilan uyg'un holda ko'radigan barkamol inson tarbiyalashni talab etadi. [1, 253]

Mamlakatimizning birinchi rahbari Islom Karimov yosh avlod ta'lim-tarbiya haqida davlatning bosh islohotchilik roli to'g'risida to'xtalar ekan, " Bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlar tuzishga olib boradigan yo'ldagi asosiy tayanchimiz- insondir. Yuksak malakali va yuksak ma'naviyatli insondir". Bu narsa ayniqsa yosh avlodga tegishli. Kelajagi buyuk, enn birinchi navbatda, bo'lajak fuqorolarning madaniyati, ma'lumoti va ma'naviyati haqida g'amxo'rlik qilmog'i zarur ekanligi qayd etadi.

Buyuk ajdodlarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-ma'rifat, talim va tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bigan. Anashu fikrga tayangan holda, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ta'lim- tarbiya masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralib butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o'rgatish tizimining samaradorlik darajasi, yutuq va kamchiliklarri tahlil etiladi. [2, 411]

Ta'lim tushunchasiga aloxida to'xtaladigan bo'lsak, ta'lim- ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan o'qituvchi yoki murabbiy -o'quvchi yoki shigird muloqoti bo'lib, uning natujasida tarbiya va umumiy shakillanish, rivijlanish amalga oshadi. Oadamlarning ma'lumoti, faqatgina ta'limninggina natijasi bo'lib qolma(kino, radio, zangori ekran va hokozo)ta'sirida amalga oshiriladi. Tarbiya esa ozining asosiy qonunlaridan bo'lib -o'quv-tarbiyaviy jarayonini tashkil etish va ijtimoiy hayotning shaxsni, uni o'ziga xosligi hamda sifatlarini shakillantirishdek talablaridagi turg'un bo'lgan an'analrdir. Tarbiyaning asosiy maqsadi jamiyatning alohida bir olingan shaxsga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirishi, uning mohiyati, ideal talablarini o'ziga xosligi va fazilatlarini, hayotga munosabatining, aqliy, jismoniy, axloqiy va estetik rivojlanishini nazariy umumlashtirishdir.

Ta'lim tarbiyaning madaniyat bilan uyg'unlashuviga qaraydigan bo'lsak Rossiya pedagogikasida madaniy uyg'un bo'lish g'oyasi K.G.Ushinskiy asarlarida berilgan edi. U shu haqda yozadiki, agar bir ziyoli inson va fuqoroni tarbiyalamoqchi bo'lsak, yozish,



o'qish, sanash, malakasidan, o'z dini, o'z vaqtini, uning tabiatini, geografiya, tarix, madaniyatini bilishdan boshlash kerak. K.D.Ushinskiy (1824-1871) o'zining asosiy "inson tarbiyasining mavzusi sifatida" degan psixologik-pedagogik asarida yozgan ediki, bola tarbiyasi va talim uchun tarbiya prinsplari va qoidalarini bilish, balki inson tabiatini asosiy qonunlarini bilish, ularni aniq holda tadbiq qila olish lozimdir. [3, 316]

Shaxsning o'zi, o'z xulq- atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeyini tasavvur qilish orqali hosil bo'lgan obraz- "men" obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvadlik va reallikka yaqinligi insonning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini belgilab beradi va barkallik mezonlari bo'lib hisoblanadi. "Men"- obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va uning tarbiyanganlik darajasi omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qarayganda, tarbiya va talim shaxsning o'zi va o'z sifatleri to'g'risidagi tasavvurlarning shakillanish jarayonlaridir. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri anglasa, tasavvur qilsa, unda jamiyatning axloq normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kamayadi. Shunday ekan, bugungi kunda nazariy va amaliy muammolarni tadqiq qilishda va yechim topishda korreksiya(to'g'irlash) muhim ahamiyat kasb etadi. [4, 124]

Ma'limki, ta'lim -tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Eng avvalo, talim tizimiga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish kerak. Ta'lim islohoti demokratik o'zgarishlar, yangi jamiyat berpo eyish yo'lida dadil yetaklovchi, barchani harakatlantiruvchi ichki kuch bo'lmog'i zarur. Shu jumladan, ta'lim- tarbiya tizimini o'zgartirmasadan turib odamlar ongi, demakki, ularning turmush tarzini ham o'zgartirish mumkin emas.

Abbdulla Avloniy aytganidek "Trbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir". Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarini aks ettiradi. Ta'lim-tarbiya insonning shakillanishida yetakchi rol ni o'ynaydi, ta,lim-tarbiya natijasida irsiyat va muhitning staxiyali ta'siri bera olmaydigan o'qish, yozish, mehnat, malaka va ko'nikmalarni egallashi, hatto tug'ma kamchiliklari ham



ma'lum tomonga o'zgartirilishi (kar, soqov, ko'r o'qitish), muhit ta'sirida yuzaga kelgan salbiy kamchiliklarni ham tugatish mumkin. [5, 195]

Shaxsning mushohada qilishi aqilning peshlashiga olib keladi. Aql ongni sayqallaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomilashib, komillika erishib boradi. Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy rivijlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakillantirishdan iborat. Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko'ra bilishga yordam beradi. [6, 231]

Hozirgi kunda o'qituvchining bilim saviyasi, ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. Ta'lim-tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smirning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquq va erkinligini hisobga olish lozim. O'quvchilarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarini egallashga bo'lgan huquqiy davlat muammolarini to'g'ri baholay oladigan, chuqur huquqiy bilimlarga ega, ijtimoiy hayot sohalarining ichki qonuniyatlari to'g'risidagi tushunchalarni egallab borishlari zarur. Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda yoshlar rivojlaniyotgan huquqiy demokratik davlatda ijtimoiy sohadagi islohatlar, axloqiy huqqiy munosabatlar kabi masalalarga alohida e'tibor berish lozim. Tarbiya jarayonida o'qituvchi, tarbiyachilarning asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya berish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalrini mauttasil oshirib boorish, ularda tafakkur, ilmiy dunyo qarash va mafkuraviy tushunchalarni shakillantirishdan iborat.

Endi xulosa qiladigan bo'lsak inson har qanday orzu istakalarga erishish uchun bitta yo'l bor- bu maqsad. Aqil zakovatli, yuksak manaviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda tinchlik, farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Hozirgi davirda ta'lim va tarbiya maorifni yuksaltirish, milliy g'oyani ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan deb bilaman. Hozirda yurtimizda faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim, professional, o'rta maxsus va maktabgacha talim tashkilotlariga ta'lim- tarbiya



jarayonlarida barkamol insonni tarbiyalash, uning natijasi orqali mustaqil fikirlovchi, jiddiy izlanuvchi, kucli irodali, ishchan, g'oyaviy etiqodli, ma'naviyati yuksak, pok vijdonli shaxslar ta'lim-tarbiya olishmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'grisida»gi Qonuni.* — T.: 1997.
2. *G'aybullayev N., Yodgorov R. Pedagogika. Ma'ruzalar matni* —T.: TDPU nashriyoti, 2000.
3. *Nishonova Z. Bolalar psixodiagnostikasi.* — T.: TDPU nashriyoti, 1999.
4. *G'oziyev E. Inson psixikasining rivojlanishi.* — T.: «O'qituvchi», 1996.
5. *Tursunov I.Y., Nishonaliyev U.N. Pedagogika kursi.* — T.: «O'qituvchi», 1997.
6. *Пиаже Ж. Ребёнок и его развитие.* — М.: «Знание», 1984.
7. *Tursunov I.Y., Nishonaliyev U.N. Pedagogikakursi.*—T.:«O'qituvchi»,1997.
8. *Пиаже Ж. Ребёнок и его развитие.* — М.: «Знание», 1984.